



## Jizzax viloyatida chakana va ulgurji savdo tovar aylanmasi

2026- yil yanvar-may dastlabki ma'lumot

- I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI
- II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI
- III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI
- IV. METAMA'LUMOTLAR
- V. ALOQADOR BOSHQA HAVOLALAR


### I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

2026- yil 1- iyul holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 3 691 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 100 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 3 591 tani tashkil qildi.

2026- yilning yanvar-may oyida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 5 849,2 mlrd so'mni tashkil etib, 2025- yilning yanvar-may oyiga nisbatan 120,1 % ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 297,2 mlrd so'mni (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 107,6 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining tovar aylanmasi 3 270,0 mlrd so'm (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 108,4 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 2 282,0 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 143,3 %) tashkil etdi.


### Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati (%da)



Mavzuga doir havola: [Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati \(oylik\)](#)



## Chakana savdo aylanmasi asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (ulushi foizda)



## II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

2026- yil 1- iyul holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 725 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 36 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 689 tani tashkil qildi.

Viloyat bo'yicha 2026- yilning yanvar-iyul oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi 2 835,7 mlrd so'mni tashkil etib, 2025- yilning mos davriga nisbatan 6,7 % ga o'sdi.

Kichik biznes subektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi umumiy hajmi 2 691,8 mlrd so'mni tashkil qilib, 2025- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 53,5 % ga o'sdi. Viloyatda jami ulgurji savdo hajmidagi ulushi 94,9 % ni tashkil qildi.

### Ulgurji savdo hajmi dinamikasi (mlrd so'm)




Mavzuga doir havola: [Ulgurji savdo hajmi \(oylik\)](#)

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar Sh.Rashidov (11,9 m.), Zafarobod (5,0 m.), Do'stlik (178,6 %), G'allaorol (148,1 %) va Baxmal (145,0 %) viloyatlarida kuzatildi.



### Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)




Mavzuga doir havola: [Ulgurji savdo hajmi o'sish sur'ati \(oylik\)](#)

### III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO HAJMI

2026- yil 1- iyul holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni 1 047 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 1 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 1 046 tani tashkil qildi.

2026- yilning yanvar-may oyida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 2 802,7 mlrd so'mga yetdi. 2025- yilning mos davriga nisbatan 9,7 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 91,8 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlari hissasiga to'g'ri keldi.

### Umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)





#### IV. METAMA'LUMOTLAR

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlari, shuningdek, xalqaro ko'rsatmalar va tavsiyalar "Milliy hisoblar tizimi –2008", "Chakana va ulgurji savdo statistikasi bo'yicha xalqaro tavsiyalar" (BMT, 2008), Chakana tovar aylanmasining statistik kuzatuv va uning miqdoriy ko'rsatkichini hisoblash bo'yicha uslubiy tavsiyalar hisobga olingan (MDH qo'mitasi, 2011) holda ishlatiladi.

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda hisoblangan.

#### V. ALOQADOR BOSHQA HAVOLALAR

[Ulgurji savdo hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Ulgurji savdo aylanmasining o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Chakana savdo aylanmasi hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Aholi jon boshiga chakana savdo hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Aholi jon boshiga chakana savdo hajmi o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Ovqatlanish korxonalarini savdo hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Ovqatlanish korxonalarini savdo hajmi o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

<b>Chop etishga masul:</b> Xizmatlar va savdo sohasi statistikasi bo'limi	<b>Bo'lim boshlig'i:</b> D.Mayliboyeva Tel: +998722215126 (2540)	<b>Ijrochi:</b> J. Sangirov Tel: +998722215126 (2540) e-pochta: <a href="mailto:trade@stat.uz">trade@stat.uz</a>	<b>Manzil:</b> 130100, Jizzax sh., To'qimachilar ko'chasi, 7-uy
---------------------------------------------------------------------------------	------------------------------------------------------------------------	------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------	--------------------------------------------------------------------